

## MAVLAVIY ABDURASHID JAVHARIY IJODINING BADIY O‘ZIGA XOSLIGI

Mirwais TURK,

*Nizomiy nomidagi*

*O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti*

*2-bosqich magistranti*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15878102>

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada shimoliy Afg‘oniston hududida yashab ijod qilgan Mavlaviy Abdurashid Javhariy she‘riyatida uchraydigan yetakchi tamoyillar va ularning badiiy adabiyotda aks ettirilishi haqida so‘z yuritiladi. Shoir ijodida uchraydigan g‘oyalar, badiiy san‘atlar tasnif qilinib, turkiy xalqlar she‘riyati bilan o‘zaro qiyoslanadi.*

***Kalit so‘zlar:** adabiyot, badiiy adabiyot, umumturkiy adabiyot, shoir, she‘riyat, tamoyil, yetakchi tamoyil, badiiy san‘atlar, tasnif, qiyosiy tahlil.*

Shimoliy Afg‘oniston shoirlarining asarlarida metafora, timsollar va boshqa badiiy vositalar juda keng qo‘llaniladi. Ular she‘rlarida chuqur ma‘nolarni ifodalashda tasviriy vositalarni samarali ishlatadilar. Bu orqali ular o‘z asarlariga ruhiy va falsafiy chuqurlik qo‘shadilar.

Shoirlar ko‘pincha o‘z shaxsiy tajribalarini va hayotiy izlanishlarini she‘rlarida aks ettiradilar. Ular o‘zining ichki dunyosini, dard va quvonchlarini ifodalashda dinga, fanni yoki falsafani qo‘llab-quvvatlashadi. Bunday yondashuv o‘ziga xos tasvirlarni va hissiyotlarni yaratadi, shuning uchun shoirlarning she‘riyatida ko‘plab shaxsiy hikoyalar va ta’sirlar mavjud.

Shimoliy Afg‘oniston o‘zbek shoirlari o‘z xalqining tarixiy merosini chuqur anglashadi. Ular o‘z asarlarida tarixiy voqealar, qadimiy qahramonlar va madaniy merosni yodga olib, ularni avlodlarga yetkazishda muhim rol o‘ynaydilar. Bu tamoyil shoirlar orqali xalqning tarixiy xotirasi va madaniy boyliklarini saqlashga yordam beradi.

Shimoliy Afg‘oniston shoirlari o‘z asarlarini nafaqat san‘at, balki insoniyatning ma‘naviy va ijtimoiy rivojlanishiga hissa qo‘shadigan kuchli vositaga aylantirganlar. Ularning she‘riyatidagi badiiy yondashuvlar va g‘oyalar, o‘ziga xos badiiy til orqali adabiyotning chuqur qatlamlarini ochishga qaratilgan.

Jumladan, afg‘on shoiri Javhariy asarlarida mazkur jihatlar yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Mavlaviy Abdurashid Javhariy bolaligidan ijtimoiy kishi bo‘lib, jamoat bilan yashashni o‘ziga juda katta quvonch va iftixor bilib, jamoa orasida bo‘lib o‘tgan har xil masala va muammolarni o‘ziga yarasha yechishi to‘g‘risida tadbirlar oladi. Ittifoq va ittihad bo‘lib yashashni islom ulusiga muhim va kerakli masaladir deb tushinadi.

Biroq bu siyosiy nizom uni siyosiy lashtiradi va siyosiy yo‘llarga tortadi. Bu nizom Javhariyning o‘z maqsadiga erishish uchun yaxshi yo‘l ko‘rsatib, u kishi bu urushdan yaxshi va qulay istifoda qiladi. Mafkuralarini piyoda qilishida imkoniyatlar yaratadi. Shunday bo‘lsa-da, Javhariy siyosiy mafkuralar oqimida ijtimoiy mafkuralarning ham piyoda qilishga boshladi, el orasida yaxshi va oliy o‘rinni egallaydi.

O‘shanda ham bu risolaning Javhariy millatchi shoir va yozuvchi bo‘lib millatni dard va ranjlarini va ularning ustiga bo‘lgan barcha zulmlarini kuylagandir. Bu yerda Javhariyning ijtimoiy va siyosiy mafkuralarini qanday bo‘lganligini she’riy misollar bilan ko‘rsatamiz.

O‘lkani taroj qildi xoin u g‘addorlar  
Qildi millat holini zor-u zabun terrorlar  
Rishvat u sudu xiyonat ahil aro tobt rivoj  
Ichtiy millat qonini aval zolimu xunxorlor  
Bizga xo‘rlik ko‘p bo‘lib-xotun farq o‘lmadi  
Shul sababdan qon yutadur mard haq-u hushyorlor [1; 28].  
Ittifoq va ittihadlik to‘g‘risida Javhariy bunday deb yozadi:  
Chin yurakdan ey musulmonlar,bo‘lunglar ittifoq  
Kimka birlik istamas beshak bo‘lur ahli nifoq  
Birlik-u vahdat biling tavhid iymon shartidur  
Ahli tavhidga yarashur ittihad-u ittifoq  
Kufr eli sulhe vasallam istar munofiqlik bilan  
To‘g‘ri yo‘l ko‘rsatmagay begonau ahli shiqoq [1; 45].

Javhariy yana bir yerda xalqni g‘afolat uyqusida yotmay, zolimlarni qilgan zulmini qabul qilmay ularni nobud va yakson qilish uchun quyidagi g‘azalni aytgandir:

Keling do‘stlar, bu millatlarni hushyor aylomimizmu  
Bu g‘afolat uyqusidan ko‘zni bedor aylomimizmu  
Xiyonat qilg‘uchilar xalq olam dushmani bo‘lg‘ay  
Bu zolim poraxo‘rlar birla paykor aylomimizmu  
Jahonda mard haqlar haq yo‘liga jonini berg‘ay  
Baland ovoz eylon biz haqini izhor aylomimizmu

Diniy qarashlari. Mavlono Abdurashid Javhariy nafaqat yozuvchi va zullisonayn shoir edi, balki diniy tarafdin ham bir katta olim, xatib, mufassir va muhaddis edi. U kishi din va dindorlik to‘g‘risida ikki tilda (o‘zbek, fors) bir qancha asarlarni jumladan: “Safari baxonaxudo”, “Falsafa islom dar ijtimoa”, “Andarz ibrat, musulmonchilik yo‘li va din zaruriyati”, “Mavludiya Muhammadiya” (ikki tilda ayrim ikki risola) va bir qancha maqolalar yozgan. Ayrimlari to‘g‘risida oldingi

fasllarda to‘xtalib o‘tdik. Bulardan tashqari, she‘riy to‘plamlarida ham islom ulug‘ diniga qarashli hamd va sano, na‘tlar va islom dinining ruknlari to‘g‘risida, g‘azal, muxammas, masnaviy, tarji‘band va tarkiband qoliplarida she‘rlar ko‘zga ko‘rinadi. Biz bu yerda o‘rnak sifatida birinchi g‘azal va muxammasni bu risolada keltiramiz.

Xudodan uzga yuqdur ikki olam ichra bir ma‘bud  
Azaldan to abad bordur hamisha boqiy-u mavjud  
Haqiqat ka‘basidur jumla mo‘minlar dili bilsang  
Ko‘ngilni ovlaganlar ikki olamda topar maqsud  
Safarga chiqqon odam birdam rohatda o‘lturmas  
Ki tomanzilg‘a bormoriy rohrulor bo‘lmag‘oy osud [1; 22].

Islomning uchinchi rukni (ro‘za) to‘g‘risida Javhariy bunday yozadi:

Bandalarg‘a bois ajri farovon ro‘zadur  
Dard asyolg‘a ajab bir yaxshi darmon ro‘zadur  
Xayr bobi ochilub sharni eshiki yopilur  
Bois xayr-u saxo vujud ehson ro‘zadur  
Haq kalomi nozil o‘ldi laylatulqadir kechasi  
Ma‘dan lutfe xudo-yu nur Qur‘on ro‘zadur [1; 28].

Tarbiyaviy fikrlari. Javhariy o‘z asarlarida, xususan, “Javzjon quyoshi” she‘riy to‘plamida har masalalarni zikr qilgandir. Bu asarning eng muhim va kerakli bo‘limi Javhariyning tarbiyasi mafkuralarining o‘z ichiga oladi. Buning yozilishini oson tushunish uchun ikkiga turga ajratamiz:

1. Axloqiy va tarbiyaviy fikrlari.
2. Ma‘naviy va tarbiyaviy fikrlari.

Axloqiy va ma‘naviy tarbiyaviy fikrlarining qay darajada ekanligini shoir devonida keltirilgan she‘rlaridan yaxshi tushunish mumkin. Bu devondan misol sifatida aytib o‘tgan ikki turkumdan she‘rlar keltiramiz.

Quloq tutg‘il nasihat aylayin jonim yamondan qoch.  
Taningda boricha jon, fitnayi oxir zamondan qoch  
Baxilu sudxo‘r badasil-u zolimlarg‘a yondoshma  
Sara ko‘ngli oqarmas bag‘ri qattig‘ bad gumondan qoch  
Yonidan yondoshib o‘tsang boringni olmayin qolmas  
Hayosiz, sharmsiz, shilqin gadoy etar zabondan qoch  
Yaqinlashma bu zolim poraxo‘rlar oldig‘a hargiz  
Baloiy nogahondur, san baloiy nogahondan qoch [1; 18].

Javhariy she‘rlarining badiiy jihatlari. Javhariy she‘rlarini badiiy jihatdan quyidagi bo‘limlarga bo‘lamiz:

1. Tasviriy jihatdan.

2. Adabiy vositalarning qo‘llanishi jihatidan.

3. Aruz vazni jihatidan.

Tasvir jihatidan:

Javhariyning she‘rlarida tabiat go‘zalligining bo‘yoqlari ichida qo‘l tegmagan dashtlarda va uning ishtiyoqi bo‘lgan, tabiat jilvalarining rangi ko‘rishiga, uning tilaklarini tongda va shabnam yig‘in sahro giyohlari tomoniga beqarorona va tezligiga, gullagan daraxtlar tomoniga, osmon buyukligiga va u tamom go‘zalliklari ichida, tabiat ehsonidan osoyishtalik topgan.

She‘r tabiatning rangiga qizil lolalar shikvasiga, yashil o‘tlar ichidagi o‘sgan gullarga tuzgan, she‘rlaridan butun azamat bilan tasvir bo‘lgan.

Javhariy butun ashyo va hatto o‘zining ma‘shuqasi vujudiga tabiat jilvalarini ko‘radi va uni sevadi. Gohi tabiat ma‘shuqa siymosida, gohi ranglarda va ba‘zi his va andishasida tirik bo‘lar edi. Butun she‘rlarini va butun qasidalarni tabiatning jilvasi deb hisoblar edi.

Hamma narsalarni, yorni baland bo‘ylik va ma‘shuqa husni holi, yigitlik, ishq va mastlik lazzati va hatto butun hissiyot va shoirona hayotiga payvand berar edi.

Javhariy quyidagi g‘azalda yangi yil, yangi bahor va ko‘klam faslini tasvir yuzasiga tortadi:

Shod bo‘lg‘il, ey ko‘ngil keldi bukun yangi bahor

Sabzadan yashnab yasandi bog‘-u dashtu ko‘hisor

Yosaman barga so‘san ochildi rang-rang

Dashtu sahroyu biyobon bo‘ldi bo‘ldim lolazor [1; 32].

Javhariy o‘z yorining uzoqligidan shubhalanib, furqat va judoligini qaralaydi va yorini go‘zaligini berma bir tavsif qilib va uni quyidagi g‘azalda tasviriy qilib keltirgan.

Fasl gul keldi nigorim bo‘ldi gulshan rashk bog‘

Rahm etib holim so‘rob ey nozanin qilg‘il biroq

Soya gul koyetib gul bargidan bistar yasob

Loladan sog‘ar qilib gul g‘unchadan tutsam ayog‘...

Ochilib gul g‘unchadek bo‘l xastani shod aylogil

Qilmagin bul Javhariy ko‘ngil buzib qosh-u qabog‘ [1; 43].

Javhariy yana bir g‘azalida o‘rtaga kelgan yangi zamon va yangi hukumatni va oldingi o‘tgan hokimiyatlarni qishga o‘xshatib, uni ushbu tasvir vositasida bayon etadi:

Yuz tarovat birla keldi bizga bu yangi bahor

Tog‘-u toshlar yashnibon bo‘ldi ajoyib lolazor

Bu bahor bilsang agar boshqa bahorg‘a o‘xshamas

Fasl gul fayzi bilan keldi bu kun yangi bahor.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, Mavlono Abdurashid Javhariy she’rlarining badiiyati bu qismda namunalar keltirilib ma’lumot berilgan. Javhariyning fikri jihatdan, Javhariyning ijtimoiy-siyosiy fikrlari, diniy qarashlari, tarbiyaviy fikrlari; she’rlarining shakli jihatdan adabiy vositalarni qo‘llanilishi, badiiy san’atlarning ishlatilishi, badiiy san’atlarning bo‘linishi, lafziy san’at, tajnis turlari, raddul qofiya, tasdir, aruz vazni jihatdan ma’naviy san’atlar, iltifot, lug‘z, muammo, tashbeh kabi tushunchalar Javhariyning she’rlarida keng tarzda yoritib berilgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Javhariy “Javzjon quyoshi”. Birinchi jild. Pokiston Pishovur 1985, 92b. 28-bet. 49-g‘azal.
2. M.A. Javhariy. Fonus Xuroson. – Peshovur: Pokiston. Juvand nashriyoti. 1986. 22-bet.
3. M.A.Javhariy. Devon ibn Yamin Shibirg‘oni. Juvand nashriyoti. Afgo‘niston, 1985. 22-bet.
4. M.Orif. XIII-XIV asr o‘zbek adabiyoti. 2011-yil, 16-bet.
5. M.Yahyo Hafiziy. O‘zbek adabiyotining buyuk siymolari, hijriy 1224-yil, 11-bet.
6. 6.Omanova, M. (2024). Importance of voice in expressive reading. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 12(1), 125-128.
7. Dilafruz, Kalandarova. "Issues of Uzbek Folklore and its Research in Germany." *Journal of Positive School Psychology* 6.9 (2022): 4395-4398.
8. Kadirova M.H. "The need for improving the methodology of teaching folklore in distance learning" Lecturer, Department of Uzbek language and literature of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Uzbekistan, <https://inlibrary.uz/index.php/crjps/article/view/17610>
9. 9.O‘RAZBAYEVA Mahbuba. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. “Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an’anasi” mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman material. 2024-yil 25-yanvar, 28-32-betlar. [https://oriens.uz/media/conferencearticles/5\\_ORAZBAYEVA\\_Mahbuba\\_28-32.pdf](https://oriens.uz/media/conferencearticles/5_ORAZBAYEVA_Mahbuba_28-32.pdf).
10. 10. Burkhanova, F. "The Wisdom In The Works Of Alisher Navoi." *Turkish Journal of Physiotherapy and Rehabilitation* 32.3: 32467-32472.
11. 11. Atabayeva G.F. The sign content of “Ffu” novel // *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, USA*. 2022. – P.139-142. (Impact Factor - 8.0).
12. 12. Махбуба Қадамбоевна Ўразбаева. АЁЛ ХАРАКТЕРИНИ ОЧИШДА БАДИИЙ НУТҚНИНГ ЎРНИ. *GOLDEN BRAIN. RAIN* ISSN: 2181-41 20. 23.01.10. 193-199- 6. <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/1179>